

## USMON NOSIR ASARLARIDA GO'ZALLIK KATIGORIYASI.

**Nuraliyeva Nasibahon Axmadqulovna**

*Andijon davlat tibbiyot instituti ijtimoiy-gumanitar kafedra mustaqil izlanuvchisi*

**Anotatsiyasi:** *Ushbu maqolada go'zallikni nafosat bilan uyg'unlikda ochib berilishi orqali, Usmon Nosir asarlarida go'zallik, nafislik, nozik, Latif, yoqimli, badiy jihatdan juda yuksak, badiy nafis bir ruh ufirib turibganini ko'rish mumkin. Muallif she'rlarida badiy-estetik jihatdan ahloqiy qoidalarini ma'naviy ta'lim-tarbiyani sayqallashiga hizmat qilib, maftunkorlik, jazibalilik, ulug'vorlik, vatanparvarlik kabi insonni ichki qalb tug'yonlarini, o'zining his-tuyg'ularini yuksak mahorat bilan ocib berolgan. SHoirning ko'plab asarlarida ilmiy faktlarga tayanib bu orqali hayotiy orzu-intilishlarini namoyon etish va she'rlari inson qalbiga chuqur ma'no-mazmun baxsh etib, yoshlar tarbiyasini go'zallik ila badiy-estetik qiyoslash orqali ochib beroldi.*

**Kalit so'zlar:** *Go'zallik, nafost, jozibalik, Latif, ulug'vorlik, ilmiy, ma'naviy, ta'lim, tarbiya, badiiy, estetik, tug'yon, maftunkorlik, axloqiy, vatanparvarlik.*

**Annotation:** *In this article, by revealing beauty in harmony with elegance, it can be seen that beauty, elegance, subtlety, Latif, pleasant, artistically very high, artistically elegant spirit is blowing in the works of Usman Nasir. In his poems, the author used his artistic-aesthetic moral rules to polish spiritual education, and skillfully revealed the inner feelings of a person, such as charm, attractiveness, grandeur, patriotism. In many works of the poet, he was able to express his life dreams and aspirations based on scientific facts, and his poems gave deep meaning and content to the human heart, and revealed the education of youth through artistic-aesthetic comparisons with beauty.*

**Keywords:** *Beauty, elegance, charm, Latif, grandeur, scientific, spiritual, educational, upbringing, artistic, aesthetic, sensuality, charm, morality, patriotism.*

**Аннотация:** *В данной статье, раскрывая красоту в гармонии с изяществом, можно увидеть, что красота, изящество, тонкость, латиф, приятность, художественная высота, художественно элегантный дух пронизывают творчество Усмана Насира. В своих стихах автор использовал свои художественно-эстетические моральные правила для оттачивания духовного воспитания и искусно раскрывал внутренние чувства человека, такие как обаяние, привлекательность, величие, патриотизм. Во многих произведениях поэт смог выразить свои жизненные мечты и стремления, основываясь на научных фактах, а его стихи наполняли глубокий смысл и содержание человеческому сердцу и раскрывали воспитание молодежи через художественно-эстетические сравнения с красотой.*

**Ключевые слова:** *Красота, изящество, обаяние, латиф, величие, научный, духовный, воспитательный, художественный, эстетический, чувственность, обаяние, мораль, патриотизм.*

## KIRISH

O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida go'zallik tushunchasi muhim estetik kategoriyalaridan biri hisoblanadi. XX asr o'zbek she'riyatida alohida o'rin egallagan Usmon Nosir ijodi ham ana shu go'zallikni o'ziga hos badiiy ifoda vositalari orqali yoritib beradi. Shoir asarlarida go'zallik oddiy tashqi tasvir emas, balki ichki ruhiy kechinmalar, insoniy orzu-intilish bilan bog'liq holda ifoda qilgan. Uning she'riyatida go'zallik tabiat manzaralari, inson qalbidagi ezgulik, Vatanga muhabbat va erkinlik tuyg'ulari bilan bog'liq holda talqin etiladi. Usmon Nosir she'riyatida go'zallik, avvalo, inson qalbining go'zalligi sifatida namoyon bo'ladi. Shoir tabiat manzaralarini tasvirlar ekan, ularni inson ruhiyati bilan uyg'unlashtirilgan. Masalan, bahor, quyosh, shamol obrazlari orqali hayotning go'zalligi va yangilanish jarayoni ifodalanad. Shoir uchun go'zallik bu harakat, hayot va kurash bilan chambarchas bog'liq tushuncha. Uning she'rlarida estetik ideal doimo faol, jo'shqin va intiluvchan harakterga ega bo'lgan.

Go'zallik tushunchasi subyektda yoqimli tassurot, hush kayfiyat va quvonch uyg'otadigan obyektidagi estetik hususiyatni tavsiflashga yo'naltirilgan ilmiy atama. Estetik hususiyat sifatida esa, go'zallik muayyan komillik va yuksak qadryatlar, insonni "erkinlikka olib boradigan yo'lidir". Go'zallik, eng avvalo, me'yor bilan bog'liq. Lekin bu bog'liqlik bilvosita-uyg'unlik orqali ro'y beradi. Ya'ni nimaiki me'yorida ekan, unda uyg'unlik hususiyati mavjud bo'ladi: uyg'unlik go'zallikning poydevoridir. Go'zallikning romantik talqini Usmon Nosir ijodida romontizim kuchli seziladi. U go'zallikning edeal darajada tasvirlashga intiladi. Shoir nazarida go'zallik-bu orzu, muhabbat, erkinlik va mukammallik timsolidir. Masalan, uning she'rlarida sevgi obrazlari orqali insoniy tuyg'ularning eng nozik jihatlari ochib beriladi. Bu yerda go'zallik faqat tashqi husn emas, balki qalb pokligi, sadoqat va fidoyilik bilan bog'liq holda ifodalanadi. Vatan va go'zallik konsepsiyasi shoir asarlarida Vatan go'zalligi alohida o'rin tutadi. Usmon Nosir uchun Vatan-eng ulug' estetik qadryatdir. U Vatan tabiatini, uning kengliklari va go'zalligini yuksak badiiy obrazlar orqali tasvirlagan. Bu tasvirlar orqali shoir nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki insonda vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi. Shu jihatdan, go'zallik va Vatan tushinchalari uning ijodida bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Usmon Nosir ijodida nafaqat go'zallik konsepsiyasi balki uning badiiy tasvir vositalaridagi go'zallik ifodasi ham alohida axamiyat kasb etadi. Usmon Nosir o'z asarlarida metafora, tashbeh, epitet kabi badiiy vositalaridan mohirona foydalangan bo'lib, aynan shu vositalar orqali go'zallik obrazlari yanada jonli va ta'sirchan qiyofada namoyon bo'ladi. Masalan, tabiat unsurlarini insoniy sifatleri bilan boyitish orqali shoir insonni chuqur estetik mushohadaga chorlaydi. Uning til boyligi va obrazli ifodasi go'zallikni nafaqat ko'rish, balki his qilish imkonini beradi.

Usmon Nosirning "Yurak" she'ri shoirning insoniy harakterini va ijodiy taqdirini o'zida mujassam etgan she'rlar sirasiga kiradi. Shoir Yurak obrazini o'zining ilhomi, ijodiy intilishlari, his-tuyg'ulari, orzu-o'ylarining mujassam timsolin deb biladi. Ya'ni uning Yurakka murojaati, aslida, o'z shaxsiga, ijodiga murojaatidek yangraydi. Bu bilan shoir o'zining Vatanga bo'lgan muhabbatini, sadoqatini, isbotlash orqali insonni sevishga, qadrlashga, Yurti uchun jonini fido qilishga undaydi, bu orqali halqini

ozodlikka chorlab ozodlik erki hissini tuydirisha va bundan estetik zavq olishga chorlaydi.

Itoat et!

Agar sendan

Vatan rozi emas bo'lsa,

Yoril, chaqmoqqa aylan sen,

Yoril! Mayli, tamom o'lsam!.

Shoir vatanparlik ruhiyatini shakillantirish orqali o'z jonini qurbon qilish bilan birga halqini ozodlik uchun birlashishib kerak bo'lsa chaqmoqdek yonmoqni da'vat etmoqda. O'zbek she'riyatida estetik qarashlari va his-tuyg'ularini badiiy jihatdan yuksak darajada ochib berilgan. Go'zallik, ko'rganimizdek, nafosatning bosh, yetakchi hususiyati hisoblanadi. Shu bois u estetikaning mezoniy tushinchalaridan biri sifatida tadqiq va talqin etiladi. Zero, go'zallikning ishtirokisiz yuqoridagi xususiyatlarining birortasi estetik tabiatiga ega bo'lolmaydi. Masalan Lev Tolstoyning "Urish va Tinchlik" romanidagi Austrlisda bo'lib o'tgan rus va fransuz qo'shinlari to'qnashuvidan so'ng, jang maydonida yarador bo'lib yotgan knyaz Andrey Bolkonskiyni esaylik bir qo'lida bayroq dastasini mahkam siqib, ko'm-ko'k maysada moviy osmonga qarab yotgan, oppoq mundrli botir yigit-bayroqdor zobitning tepasiga kelgan Napoleon uni o'lgan deb o'ylab, bu manzaradan hayratlanib: "Mana bu -go'zal o'lim!" deydi. Bu o'rinda asar qahramoning o'limi- fojiviylik, o'limning qahromonlikka aylanishi- ulug'vorlik; fojiviylik bilan ulug'vorlik xususiyatlarining omuxtalashuvi natijasida esa, go'zal manzara, qayg'uli va ulug'vor go'zallik vujudga kelgan. Shuning uchun ham Napoleonning hayratomuz xitobi bejiz emas.

Turkiston badiiy tafakkuriga ulkan hissa qo'shgan yana bir jadid mutafakkuri Cho'lponning go'zallik haqidagi tushinchasi o'ziga xos, asosan, u shoirning she'rlarida "go'zal" so'zi orqali aks etadi. Misol tariqasida Cholponning mashhur "Go'zal" she'ridan ilk va so'nggibandini keltiramiz; she'rda Vatan go'zalligi bilan unga oshiq farzandning ichki go'zalligi omuxtalashib ketadi:

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,

Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen,

Ul yulduz uyalib, boshini bukub,

Aytadir: "Men uni tushda ko'ramen.

Tushimda ko'ramen, -shunchalar go'zal,

Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!.."

Men yo'qsil na bo'lib uni suyubmen?!

Uning-chun yonibmen, yonib-kuyubmen,

Boshimni zo'r ishga berib qo'yubmen,

Men suyub..men suyub..kimni suyubmen?

Men suygan "suyukli" shunchalar go'zal,

Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Shoir o'z fikrini sho'rolar senzurasidan yashirib ifodalash maqsadida Cho'lpon "go'zal" so'ziga turli hil ma'nolar yuklaydi: u, bir tamondan, qo'l yetmas go'zal yor,

ikkinchi tamonidan, sururiy (romantik) go'zallik. Lekin har ikki holatda ham tag'ma'no tutqunlikka maxkum go'zallikni, go'zal Turkistonni o'zida mujassam etadi. Turkistonvatanparvar shoir uchun eng oliy go'zallik. Shu bois ham har bir she'rida tutqun go'zallikni nafaqat ramzda, balki tengsiz go'zal shaklda ifodalaydi.

Usmon Nosir Moskvada yashab ijod qilayotgan va ustoziga aylangan Cho'lpon bilan tanishadi, o'zining asarlari va she'rlarida isyonkorlik, fojiviylilikni, ulug'vorlikni, hayolilik, bilan bir qatorda, ustoz kabi nozik-nafis his-tuyg'ularini, vatanparvarlik, noziklik, mo'jizaviylik, uyg'unlik singari go'zallik bilan inson va jamiyat hamda tabiatdagi go'zallikni ham ochib beroldi. Usmon Nosirning "Gulzor-chaman she'rida shunday satrlar bor;

Gulzor-chaman. Yur bog'larga  
Eltay yetaklab.  
Binafshalar terib beray  
Senga etaklab..  
Chakkanga taq! To'lib tursin  
Oydek yuzlaring.  
Kunday yorug', tunday qora  
Ekan ko'zlaring.

Ushbu shoir otashin qalb sohibi bo'lmish shoirning o'z sevgan yoriga dil izhori bo'lib, unda oshiq o'z ma'shuqasiga ko'ngil sirlarini bayon etar ekan, agar vatan chorlagudek bo'lsa, qo'lyozmalarini tashlab, shinel kiyib, janglarga kirishga ham tayyorligini aytadi.

Hulosa: Usmon Nosir asarlarida go'zallikning estetik talqini ko'p qirrali va chuqur mazmunga ega. Shoir go'zallikni faqat tashqi ko'rinishda emas, balki inson ruhiyati, muhabbat, erkinlik va Vatanga bo'lgan sadoqatda ko'radi. Uning ijodi o'zbek adabiyotida estetik taffakurning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Usmon Nosir she'riyati orqali go'zallik tushinchasi yangi, zamonaviy va chuqur falsafiy mazmun bilan boyitilgan. Usmon Nosirning badiiy mahorati ham go'zallikni ifodalashda muhim ro'l o'ynaydi. Uning til boyligi, obrazli tafakkuri va badiiy vositalardan samarali foydalanishi estetik ta'sirini kuchaytiradi. Metofora tashbeh va boshqa sa'natkorlik unsurlari orqali yaratilgan obrazlar insonga nafaqat tassavur, balki chuqur hissiy kechimalarni ham uyg'otadi.

Shoir asarlarida Vatan go'zalligi alohida estetik kategoriya sifatida talqin etiladi. Vatan uning uchun nafaqat geografik makon, balki ruhiy va ma'naviy qadryatlar timsolidir. Shu jihatdan, Vatanga bo'lgan muhabbat va uning go'zalligini madh etish orqali shoir milliy ong va vatanparvarlik tuyg'ularini shakillantirishga hizmat qiladi. Umuman olganda, Usmon Nosir asarlarida go'zallik konsepsiyasi o'zbek adabiyotida estetik tafakkurning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Uning ijodi orqali go'zallik tushinchasi yangi mazmun bilan boyib, insonparvarlik, erkinlik va yuksak ma'naviyat g'oyalari bilan uyg'unlashgan holda talqin etiladi. Bu esa shoir ijodining bugungi kundan ham dolzarb va ahamiyatli ekanini tasdiqlaydi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Estetika Nafosat falsafasi Toshkent “O‘zbekiston” 2014 y.
2. Turkiston ulug‘lari. “Usmon Nosir haqida” Nodira Rashidova G‘ofur Gulom nomidagi Adabiyot va sana‘t nashriyoti Toshkent 2001y.
3. Adabiyotshunoslik asoslari 2014y
4. O. J. O‘roqova. Turkistonda ma‘rifatparvarlik falsafasi. Andijon 2021 y.
5. O. J. O‘roqova. Cho‘lpon ijodining badiiy-estetik mohiyati. T: Ilm ziyo zakovat, 2019y.
6. Zamonaviy o‘zbek adabiyotini rivojida Usmon Nosir ijodiy merosining o‘rni va ahamiyati. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.
7. [https:// tafakkur.net/nil-va-rim/usmon-nosir.uz](https://tafakkur.net/nil-va-rim/usmon-nosir.uz).
8. <https://uz.wikipedia.org>.